



**BUTUNJAXON IQLIM O'ZGARISHI MUAMMOLARI VA
ULARNING ECHIMI MASALALARI**
**ПРОБЛЕМЫ ГЛОБАЛЬНОГО ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА И
ИХ РЕШЕНИЯ**
**WHOLE WORLD CLIMATE CHANGE PROBLEMS AND
THEIR SOLUTIONS AND ISSUES**

Mamirov Azizjon Niyazmuxamedovich.

ALFRAGANUS University

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta oqituvchi
Falsafa fanlari boyicha falsafa doktori PhD).

e-mail: Aziz_mn@list.ru

[tel: +998935074799](tel:+998935074799)

Annotatsiya. Xozirgi davrda O'zbekiston yoshlar dunyoqarashida ekologiyaga nisbatan xurmatni shakllantirish dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologiyani asrab avaylash orqali kelajak avlodga butun tabiatni qoldirishimiz mumkin. Maqolada ekologiyani asrab avaylash buyicha fikr va mulohazalari yoritib berilgan.

Аннотация. Формирование бережного отношения к окружающей среде в мировоззрении узбекской молодёжи становится сегодня актуальной задачей. Сегодня, сохраняя окружающую среду в глобальном масштабе мы можем оставить будущему поколению природу целым и не вредимым. В статье рассмотрены идеи и взгляды по сохранению окружающей нас среды.

Abstract: Formation of careful attitude to the environment in the worldview of Uzbek youth is becoming an urgent task today. Today, preserving the environment on a global scale we can leave the nature to future generations whole and unharmed. The article examines thoughts and views on preserving the environment around us.



Kalit soʻzlar: Ekologiya, er, atmosfera, insoniyat, iqlim, global, ilm-fan, issiqxona, tenglik, tabiiy ofatlar, BMT.

Ключевые слова: Экология, земля, атмосфера, климат, глобальный, наука, парниковый эффект, равенства, природные явления, ООН.

Keywords: ecology, earth, atmosphere, climate, global, science, greenhouse effect, equality, natural phenomena, UN.

Oʻsimlik va xayvonlarning xayot tarzi, yashash sharoitlari va moslashishlari, sonining oʻzgarishlari xaqidagi dastlabki ekologik bilimlar eramizdan avvalgi asrlarda qadimgi Rim va Yunonistondavujudga kelgan [3].

Soʻnggi paytlarda er sayyorasida umumiy haroratning koʻtarilishi atrof muhitning, ayniqsa atmosfera havosining zararlanganligini koʻrsatuvchi asosiy koʻrsatkichlardan biridir. Atmosfera havosi tarkibida qator zararli moddalar miqdorining koʻpayishi nafaqat haroratning, balki sayyoramizning barcha mintaqalarining iqlimi oʻzgarishiga olib kelmoqda.

Olimlarning maʼlumotlariga koʻra, iqlim oʻzgarishining asosiy sababi er yuzasidan chiqadigan uzun toʻlqinli radiatsiyani yutib atmosferada issiqxona effekti hosil qilayotgan gazlardir. Shu toifaga kiruvchi gazlar “Issiqxona gazlari” deb ataladi. Bu jarayonning mohiyati quyidagicha: quyoshdan keladigan radiatsiyaning bir qismi (30 foiz) atmosfera tufayli bulutlar orqali kosmosga qaytadi. 15 foiz atrofida esa, atmosfera qatlamlarida yutiladi, qolgan energiya atmosferadan oʻtib er yuzasiga etib keladi va uni isitadi.

Yer sayorasi oʻz navbatida atmosfera orqali uzun toʻlqinli infraqizil nurlarni koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish oʻrniga issiqxona gazlari tomonidan yutiladi va shu asosda atmosfera meʼyorida ortiq qiziydi va nihoyat er iqlimiga taʼsir koʻrsatadigan issiqxona qatlami hosil boʻladi. Issiqxona paydo qiladigan gazlarning atmosferada ortishi esa, yuqorida qayd qilinganidek, insonlarning faoliyati bilan bogʻliq.

Bugun jahon hamjamiyati iqlim oʻzgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olmoqda. BMT Iqlim oʻzgarishi



to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi uni hal etishning ikkita asosiy yo'nalishi belgiladi: atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish hamda kuzatilayotgan va kutilayotgan iqlim o'zgarishlariga moslashish. O'z vaqtida choralar qabul qilmaslik va atmosferada issiqxona gazlari miqdorini bundan keyin ham ko'payishi holatida mamlakatlar iqlim o'zgarishi borasidagi harakatlar uchun katta mablag'larni mobilizatsiya qilishlariga to'g'ri keladi.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida Parij Bitimi qabul qilindi. Yangi kelishuvning asosiy qirralaridan biri rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan davlatlar ham tashlanmalar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilab qo'yilgan.

Kelishuvning asosiy maqsadi issiqxona gazlari tashlanmalarini sezilarli darajada kamaytirib, sayyoramizda global isishni industrial rivojlanish davridagi o'rtacha haroratga nisbatan Selsiy shkalasi bo'yicha 1,5-2 gradus chegarasida ushlab turishga erishishdan iborat. Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, agar bu amalga oshirilmasa, sayyoramiz yildan yilga ko'proq keskin iqlim o'zgarishlariga duchor bo'ladi.

2017 yil 19 aprelida BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O'zbekiston Parij Bitimini imzoladi. Bitimni imzolash uchun BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiya kotibiyatiga issiqxona gazlar tashlanmalaridagi milliy miqyosda belgilanadigan hissasini kamaytirish to'g'risida hujjat taqdim etildi. Mazkur bitim 2018 yili 3 oktyabrda ratifikatsiya qilindi. 2030 yilgacha uzoq muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirishni – 2030 yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010 yildagi darajaga nisbatan (yalpi ichki mahsulotga) yalpi ichki mahsulot birligiga 10 foizga qisqartirishni mo'ljallamoqda.

2002 yili Yoxansburgda (VSUR 2002) barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan butunjaxon sammitida “siyosiy deklaratsiya ” va “Barqaror



rivojlanish bo'yicha oliy darajada Butunjaxon uchrashuvlar qarorlarini bajarilish rejasi" qabul qilindi [1].

Iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

Birinchidan, issiqxona gazlarini kamaytirish. Buning uchun birinchi navbatda ishlab chiqarish korxonalari, IES va boshqa atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqaruvchi tashkilotlarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali atmosferaga tashlanayotgan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish zarur.

Ikkinchidan, yoqilg'ilar sifatini yanada yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko'paytirish, shu jumladan keng jamoatchilik uchun qulay bo'lgan veloyo'lakchalar tashkil etish o'z navbatida issiqxona gazlari miqdorini kamaytiradi.

Uchinchidan, ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish. Tabiiy drenaj hisoblangan ko'p yillik daraxtlarning ekilishi hududdagi mikroiklimni yumshatishga sabab bo'ladi. Shuningdek, Ko'kalamzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa shahar va avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish zararli moddalar miqdorini kamayishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, suvdan oqilona foydalanish. Tomchilab sug'orishni tashkil etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish ham o'z navbatida iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun xizmat qiladi.

Iqlim o'zgarishlarining oqibatlarini barchamiz his qilib turibmiz. Xususan, mintaqamizga mos bo'lmagan shamolning tezligi natijasida Buxoro viloyatida yuz bergan tabiiy ofat yoki bir qator hududlarda sel kelishining ortishi bu albatta iqlim o'zgarishlarining oqibatidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash ishlariga e'tibor yanada kuchaydi.



Yurtboshimiz yuksak minbarlardan ekologik muammolarni hal etish uchun sa'y-harakatlarni birlashtirish zarurligini ta'kidlamoqdalar. Jahon hamjamiyatini buni qo'llab-quvvatlamogda. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida jahon hamjamiyatini, shu jumladan mintaqa mamlakatlarini ekologik masalalarda, jumladan Orol dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etishda xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirish zarurligini ta'kidlab o'tdi. Bugungi kunda mazkur masalalarda amaliy ishlarni barchamiz guvohi bo'lib turibmiz. Birgina misol sifatida BMT shafeligi ostida Inson xavfsizligi bo'yicha ko'pshevikli Trast fondining tashkil etilishi yoki mustaqillikning 27 yili davomida Orolning qurigan tubida 400 ming hektarda o'rmonzor tashkil etilgan bo'lsa, so'nggi ikki yilda qariyb 1200 ming hektarga saksovul va bosh cho'l o'simliklari urug'lari sepilganligi va ko'chatlari ekilganligini keltirish mumkin.

Davlatimiz rahbarining "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining bir qator bandlarida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish masalalari belgilanganligi iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun xizmat qiladi. Aytish joizki, dunyoda ekologiya yo'nalishida qariyb 100 ta siyosiy partiya faoliyat yuritadi. Odatda "yashillar" nomi bilan yuritiluvchi bu partiyalar, parlament orqali ekologiya soxasidagi davlat siyosati g'oyalarini ilgari suradi [2].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, global tusdagi ekologik muammoni bir yoki ikki davlatning sa'y-harakati bilan bartaraf etib bo'lmaydi. Bunga barcha davlatlar hamjihatlikda ekologik muammoni



bartaraf etish uchun kurashish talab etiladi. Kelgusi avlodlar uchun musaffo osmon, go'zal tabiat va uning bebaho ne'matlarini bekamu ko'st holda etkazish barchamizning umuminsoniy burchimiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Turabjonov, M.M.Aripova, L.S.Raximova. Ijtimoiy ekologiya. Lits №. -2022y. 107 b.
2. M.Turabjonov, M.M.Aripova, L.S.Raximova. Ijtimoiy ekologiya. Lits №. -2022y. 49-50b.
3. X.T.Tursunov, T.U.Raximov. Ekologiya. O'quv qo'llanma. -Toshkent. "NIF MSH" 2020y. 6-B.